

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI



5111800 – “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi IV- kurs talabasi  
Tursunboeva (Siddiqova) Xandona Sobirjon qizining “Didaktik o'yinlar  
vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi  
muhitni tashkil qilish” mavzusidagi  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba X.S. Tursunboeva  
Ilmiy rahbar Dots.N.M.Kayumova  
Taqrizchilar: G.I. Illyasova

“Himoyaga tavsiya etilsin”  
“Maktabgacha ta'lim texnologiyasi” kafedrasini  
mudiri G.E.Djanpeisova  
p.f.n.dots. G.E.Djanpeisova  
“—” 2021y

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		<b>2-5</b>
I BO B	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning nazariy asoslari	
1.1	Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin faoliyatining kelib chiqish tarixi	<b>6-12</b>
1.2	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning holati	<b>13-20</b>
<b>Birinchi bob yuzasidan xulosalar</b>		<b>21</b>
II BO B	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mexanizmi	
2.1.	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mazmuni	<b>22-29</b>
2.2	Maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish usullari	<b>30-44</b>
<b>Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar</b>		<b>45</b>
III BO B	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish. foydalanish metodikasi	
3.1	Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari	<b>46-58</b>
3.2	Tajriba-sinov ishlarining tahlili	<b>59-61</b>
<b>Umumiyl xulosa va tavsiyalar</b>		<b>62-64</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati</b>		<b>65-66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarblii.** Bugungi kunda barcha sohalar kabi uzlusiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri – malakali pedagog kadrlar tayërlashdan iborat. Chunki maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siësatini muvaffaqiyatli yuritishga to‘sinqinlik qilaётgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar sifatida: maktabgacha ta’lim muassasalarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi; maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konцерциyasida chuqur tahlil этib berildi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayërlash darajasini tubdan yahshilash, ta’lim –tarbiya jaraeniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq этish, bolalarni har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida этibor qaratildi<sup>2</sup>. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil этish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va barkamol этib tarbiyalashning barcha jihatni belgilab berildi.Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tuzilishi bu boradagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga olib keladi. Shunda biz o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iyemoni butun hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz.

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagagi PK-4312-son qaroriga 1-ilova.

<sup>2</sup>\*Turkiston ro‘znomasi 2017 yil 1-fevral 3-bet.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Shaxs va jamiyat munosabatlari, ma’naviyat va ahloqiy tarbiya masalalari, shaxsni shakllantirishda ijtimoiy munosabatlarning o‘rni Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Jaloliddin Rumiy, Abdulla Avloniy larning pedagogik g‘oyalari va qarashlarida o‘z aksini topgan.

YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir.

O.Musurmonova, S.Nishonova, U.I.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.O.Ortiqov, Sh.T.Xalilova, N.M.Egamberdieva, Sh.S.Shodmonova, Q.Quronov, Sh.Olimov, G.Maxmutova, N.N.Djamilova kabi olimlar ta’limning turli bosqichlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilarining va oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, mazkur jarayonda milliy tarbiya asoslaridan samarali foydalanish, barkamol insonni tarbiyalash modelining ishlab chiqilganligi e’tiborga loyiqidir.

Lekin aynan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati orqali rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish muammoi yetarlicha o‘rganilmagan.

Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini: “Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish” deb belgiladik.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish.

**Tadqiqot ishining obyekti:** Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish jarayoni.

**Tadqiqot ishining predmeti:** Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mazmuni, ish shakllari.

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

Mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik ,ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash;

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishga yordam beradigan o‘yin texnologiyalarini tanlash va mazmuni, ish shakllarini belgilash;

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish;

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqot metodlari:**

-nazariy metodlar (mavzuga oid falsafiy, pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish);

-emperik metodlar (pedagogik jarayonni kuzatish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagogik ish hujjatlarni, dasturlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, so‘rovnama, test, pedagogik tajriba);

**Tadqiqotning ilmiy ahamiyati:** Tadqiqot jarayonida tarbiyachi ish faoliyatidagi kamchiliklar va muammolar o‘rganilib chiqildi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi ish faoliyati kuzatildi, tahlil qilindi va ularga uslubiy yordamlar berildi. Hamda ularni amaliyotda qo’llash yo’llari ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgachakatta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy-metodik tavsiyalar mashhg’ulotlar samaradorligini oshirishda amaliy jihatdan yordam beradi.

**Tadqiqotning metodologik asosini:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan chiqarilgan me’yoriy hujjatlar , Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari , “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi, mavzuga oid pedagogik va ilmiy metodik manbalar tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:** kirish, III bob, VI paragraf, boblar yuzasidan xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

**I bob. Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning nazariy asoslari**

### **1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin faoliyatining kelib chiqish tarixi**

**Rivojlanish** – individning tug‘ilganidan boshlab hayotining so‘ngigacha davom etadigan shakllanish jarayoni.

**Rivojlantiruvchi ta’lim** – o‘quvchi yoki talabaning ta’lim vositasida bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlovchi jarayon; har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoni.

**Muhit-** hayot, faoliyat kechiradigan tabiiy ijtimoiy sharoitlar majmui.

**Muhitga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar** – ta’lim muhitini o‘zgartirishga yo‘naltirilib, o‘quvchining ijobiy shart–sharoitlar vositasida atrof – borliq orqali bolaning rivojlanishiga ko‘maklashadigan texnologiya.<sup>3</sup>

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug’ulanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba’zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g’oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega. Bu – deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

<sup>3</sup> Pedagogik atamalar lug’ati.O’qituvchi.2018y

Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to‘g’ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg’un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi.

P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, o‘yining ijtimoiy voqeasi ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg’or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. o‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g’ri munosabat o‘rnatish
2. o‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o‘yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy faoliyatdir; o‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi; o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u mакtabda shunchalik yaxshi o‘qiydi.

Narrow conceptualization of play is shared by many other early childhood practitioners for whom play is considered essential, as an activity promoting learning and yet only relevant to some areas of the curriculum. According to Wood and Attfield, despite constant validation from academics play continues to have an insecure place in delivering the curriculum (Wood and Attfield). The status and value of play, a source of controversy between politicians and practitioners since the Education Reform Act, has been partially substantiated by its inclusion in the Curriculum guidance for the foundation stage (CGFS) which states that

'well-planned play, both indoors and outdoors, is a key way in which young children learn with enjoyment and challenge

O'yin Mazkur izlanishlarda kutilganidek, markaziy bilim berishni rivojlantirish sifatida barcha enagalar fondiga joylashtirilgan edi, biroq hayoliy o'yin ekanligi barchaga ravshan edi. Bu qisqa tarzdagi konseptual o'yinlar boshqa ko'plab amalyotlarda ham bolalar tajribasida keng qolniladi va kerakli deb hisoblanadi, bazi bir o'quv rejalariga yondashuv sifatida qaraladi. Wood и Attfield yondashuviga ko'ra, doimiy akademik davralarni tekshiruvi natijasida o'yin o'quv rejasini taqdim etishta mutloq hafsiz emas degan tasavur qoldirmoqda. Oquv qonuni reformasida Siyosatchilar va amalyot o'tuvchilar o'rtasidagi bir biriga teskari bo'lgan fikirlar O'yining mavqeyi va darajasini belgilab beradi, Unda aytishicha "ochiq havoda yoki yopiq maskanda yaxshi tuzilgan o'yin, yosh bolalar uchun maroqli tuyilishi va ular qiziqish bilan o'rganishadi" va shu tarzda o'quv fundamenti darajasini o'rganish maqsadida qisman uni boshqarma o'quv rejasiga qo'shish taklifi tasdiqlangandi (CGFS)<sup>4</sup>

Researching Effective Pedagogy in the Early Years

Department of Educational Studies University of Oxford(234)

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks

<sup>4</sup> Researching Effective Pedagogy in the Early Years

ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar. Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g’risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jarayonda o‘yining tutgan o‘rnini juda muhim bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalilaniladi. Zero:

- o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- o‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalardan biridir;
- o‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Go`dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o`rganish bo`yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari aloqida ahamiyatga molikdir.

S.Fayans tajribasida go`dakka chiroyli va jozibador o`yinchoqlar 9 sm masofadan ko`rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo‘lganida bolaning intilishi, qo`l cho`zishi, sustlashgan, cho`zilishi, ihtiyyorsiz harakati mutlaqo so`ngan. U o`yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga qam ana shunday befarq qaragan. Masofaga qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko yarim yoshlik go`daklarda jozibali narsalarning o`zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma'lumotlarga qaraganda go`dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin vaziyatlarini vujudga keltirish va unga kirish ko‘nikmasi o‘qituvchi faoliyatining majburiy jixatidir. Pedagogning o‘yin pozitsiyasi – bu avvalo bolalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarning alohida uslubidir.

Yu.P.Azarov o‘z tadqiqotlarida o‘yinga ko‘p marta murojaat qilgan o‘yin xatti-harakatini tahlil etar ekan, pedagogning bolalar bilan o‘yin va rasmiy o‘zaro munosabatlarini o‘rnatishdagi alohida holatini maxsus ajratib ko‘rsatadi.

Sh.A.Amoshavilli pedagogik o‘yining ajoyib ustasidir. Umidbaxsh pedagogikani tartib qiluvchi omil o‘yin pozisiyasidan foydalana olmaslik mumkin emasligi, tabiyidir. U bolalarni o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga darsda o‘qituvchi bilan bahslashishga o‘rganadi. Ba’zan quyidagicha amalga oshiriladi. O‘qituvchi jiddiy holatda turib ishonchli ohangda qandaydir noto‘g‘ri fikrni boshlaydi-da, o‘quvchilari uni asosli dalillar va mulohazalar bilan rad etmagunlaricha uni davom ettiraveradi. Shundagina pedagog “xato qilganligini tushinib” yordam bergenlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki kechinma psixik (ruhiy) xulqni shaklidir.

L.S. Vigotskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

A.N.Leontyev o‘yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:  
maftunkorlik;

kommunikativlik;

o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;

davolovchilik;

tashxis;

millatlararo muloqot;

ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A.Shumakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday

faoliyat faqat natija tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;

o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;

o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;

o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Pedagogik o‘yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o‘yin metodikasi, soha xususiyati, o‘yin muhiti bo‘yicha tasnif qilingan.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalargna o‘yining mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o‘yinining rivojlanish darajasiga ta’sir etish mumkinligini ko‘rsatdi.

## **1.2. Didaktik o‘yinlar vositasida mактабгача кatta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning holati**

Mактабгача та’лим ташкilotining davlat о‘кув дастuri O‘zbekiston Respublikasining ilk va мактабгача yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda мактабгача та’лим ташкilotining maqsad va vazifalari, о‘кув-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Mактабгача та’лим ташкiloti davlat о‘кув дастuri O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta’lim muassasalarida qo‘llash uchun majburiy:

- davlat mактабгача та’лим tashkilotlari;
- mактабгача та’лим sohasida xizmat ko‘rsatuvchi nodavlat tashkilot lari;
- mактабгача yoshdagi bolalar guruhlariga ega bo‘lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;
- mактабгача va boshlang‘ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

Mактабгача та’лим tashkilotlari davlat о‘кув dasturi variativ о‘кув dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Mактабгача та’лим tashkiloti davlat о‘кув dasturi asosida o‘zining ishchi o‘кув dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta’lim muassasasining ishchi o‘кув dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

Mактабгача та’лим tashkilotining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va mактабгача yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablarini asosida hamda Mактабгача та’лим tashkiloti davlat о‘кув dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mактабгача yoshdagi bolalarning o‘кув-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil

qilish va amalga oshirish.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiylasosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bola huquqlari, o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta’lim jarayonida barcha turdag'i rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- o‘yin orqali ta’lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta’minalash;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila, mahalla va mакtab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Bolaning maktabgacha ta’lim muassasasidagi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari javobgar bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub’ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

**Kompetensiya** bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

**O‘yin kompetensiyasi** – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

**Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

**Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

**Didaktik o‘yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:**


- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

O‘yining bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg’ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyg‘a ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko‘proq didaktik o‘yinchoqlar, stol ustida o‘ynaladigan stol-bosma o‘yinlari, syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynagan ma’qul.Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish-yasash o‘yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o‘yin uchun maxsus vaqt belgilash o‘yining mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo‘lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o‘yining o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, qishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonpidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. O‘yin paytida hona bolalar uchun dengiz, o‘rmon, metro, temir yo‘l vagoni bo‘lishi mumkin.Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o‘rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o‘rniga o‘zi gapiraveradi. So‘z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o‘z his tuyg‘u, kechilmalarini o‘rtoqlashadi. So‘z bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatalishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yining g’oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O‘yin g’oyasi - bu nima o‘ynashni belgilab olish: “do‘kon, “shifoxona”, “uchuvchilar”, “bolalar muassasasi” va shunga o‘xshashlar. O‘yin mazmuniga, g’oyasiga qarab bolalarning bunday o‘yinlarini bir necha o‘ziga xos guruhlarga bo‘linadi. Ular,




O‘yinlarning bunday bo‘lishi albatta shartli bo‘lib, bir o‘yinda har xil hayotiy voqaelar aks etishi ham mumkin. G’oya o‘yining mazmuni, jonli to‘qimasi, uning rivojlanishini, o‘yin harakatlarini, bolalar munosabatlarining har xilligi va o‘zaro bog’lanishini belglab beradi.

O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g’risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga boshqa millat qishilariga ijobjiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to‘g’rilik, o‘zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi o‘ziga


xos matabdir. O‘yinda bola qishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O‘yinda boolalarning avval olgan tassurotlari orqali obraz yaratishlari – xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko‘p o‘yinlarda avval o‘rgangan ashula, she’r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavjni tarbiyalashda foydalanadi.

Bolalar o‘yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir.



Ijodiy o‘yinlarni bolalar o‘zları o‘ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zları o‘yin jarayonida belgilashadi. O‘yin bolalarni jismoniy tomonidan tarbiyalash sistemasida, Maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi. O‘yin ta’lim va mashg’ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog’liq bo‘lib juda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi. O‘yinda aks ettirlayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg’onadi. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o‘yinni tor didaktik maqsadlarga bo‘ysindirib bo‘lmaydi, bu o‘yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Har bir xalqda asrlar davomida kattalarning bolalar uchun yaratgan o‘yinlari va

bolalarning o‘zлари yaratgan ba’zi o‘yinlari mavjud. Har qaysisi ham avloddan avlodga o‘tib kelgan va xalq og’zaki ijodining o‘ziga xos shakliga aylangan. Qoidali o‘yinlar Maktabgacha ta’lim tashkilotining talim-tarbiya vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Qoidali o‘yin ta’lim bilan bevosita bog’liqdir.



Ularning har biri bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi, biroq o‘yining u yoki bu turiga mansub deyish uning asosiy tarbiyaviy ta’siriga ko‘ra aniqlanadi. Masalan: «Oq terakmi ko‘k terak, bizdan sizga kim kerak» harakatli o‘yinida bolalardagi chaqqonlik, zehnlilik, chidamlilik malakalari rivojlanadi.<sup>5</sup>

**Didaktik o‘yinlar.** Didaktik o‘yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o‘yin mazmunini amalga oshirishni ta’minlaydi. Didaktik o‘yin ta’lim bilan bevosita bog’liq bo‘lib, unga yordam beradi. Didaktik o‘yin - bu maktabgacha yoshdagи bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o‘yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo‘rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o‘yinni amalga oshirishda har doim g’oyaviylik prinsipiiga asoslanish kerak. Didaktik o‘yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg’unlashtira olishi, bir-biriga ko‘maklashish va o‘rtog’ining muvaffaqiyatidan xursand bo‘lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O‘yinlar shaxsning sof dallik, rostgo‘ylik kabi ijobiy hislatlari shakllanishiga imkon beradi.

<sup>5</sup> N.Kayumova Maktabgacha pedagogika o‘quv qo‘llanma 195 -200 b

## Didaktik o‘yin turlari

narsa va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar

stol ustiga qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar

og’zaki didaktik o‘yinlar

Didaktik o‘yinda bolalar har doim o‘zlarini o‘ynayotgandek his etishlari kerak.O‘yinda bolalarning mashg’ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o‘rgatiladi. Ikkinchchi tomondan, o‘yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko‘chiriladi.

### Birinchi bob bo‘yicha xulosa

O‘yinlar bizning hayotimizda juda muhim ahamiyat kasb etadi. "O‘yin" atamasi ko‘pchilik tillarda hazil, kulgu, yengillik, huzur-halovat kabi tushunchalarga mos keladi va ijobiy hissiyotlar bilan bog‘liq munosabatlarni anglatadi.Ta’limiy jarayonida o‘tkazilgan har qanday o‘yin o‘zida ikki xil mazmunni aks ettiradi: birinchisi, o‘yinda qatnashuvchilar

uchun ma'lum bo'lgan - dam olish, ko'ngil ochish, xordiq chiqarish, kayfiyatni ko'tarish bo'lsa, ikkinchi ma'nosи, mashg'ulotni olib boruvchi (boshlovchi) uchungina ma'lum bo'lib, bunda guruh bilan ishlash jarayonida boshlovchi o'z oldiga qo'ygan muayyan vazifalarni amalga oshirishi ko'zda tutiladi. Shu tariqa o'yin - faqat ko'ngilxushlik emas, balki guruh yoki biror bir ishtirokchining xulq atvorini boshqarish, o'zgartirish, shuningdek boshlovchi uchun zarur yo'nalishda harakatlanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'yin guruh a'zolarini bir-biri bilan tanishtirish, jipslashtirish, faoliyatga moslashtirish, muammoni hal qilishga tayyorlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish vazifalarini ham bajaradi. O'yinni o'tkazishda albatta umumiyligida qoidalarni hisobga olish va ularga amal qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, har qanday davlatning asosini, jumladan, mustaqil O'zbekiston Respublikasining shakllanishi va rivojlanishi taraqqiyotini ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasi belgilaydi; ularning barkamol fazilatlarga ega insonlar bo'lib yetishishida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining barpo qilinishi hal etuvchi omildir.

## **II.1. Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mexanizmi**

## **II.2. Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mazmuni**

Rivojlanayotgan predmet-fazoviy muhit bu har bir yosh bosqichining xususiyatlariga mos ravishda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan makon (binolar, maydon va boshqalar), materiallar, jihozlar va vositalar bilan

ifodalanadigan ta'lim muhitining bir qismidir, ularning sog'lig'ini himoya qilish va mustahkamlash hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi mavzu-makon muhiti bolalar faoliyati va o'yinlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, o'yin davomida ta'lim faoliyatining asosi bo'lgan kuchli bilim motivi tug'iladi. Predmet-fazoviy rivojlanish muhiti orqali biz bolaning aqliy rivojlanish zonasini tashkil qilamiz.

Maktabgacha tarbiya muassasasida har doim etarli mavzuli-fazoviy muhitni yaratishga munosib e'tibor berib kelinmoqda. Biroq, yaqinda, maktabgacha ta'limning asosiy umumiyligi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yangi talablarni va uni amalga oshirish shartlari bilan belgilab qo'yilgan Maktabgacha ta'lim bo'yicha Federal Davlat Ta'lim Standartlari (FGOS DO) qabul qilinishi munosabati bilan fazoviy muhit haqida mustaqil ravishda mavjud ta'lim va tarbiya vositalari tahlili o'tkazilgan va uskunalar sotib olish to'g'risida qaror qabul qilingan. Tahlil davomida "FIRO" FGAU tomonidan menejerlar uchun o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlangan "Maktabgacha ta'limning federal davlat ta'lim standartiga muvofiq rivojlanayotgan predmet-fazoviy muhitni tashkil etish" maktabgacha yoshdagি bolalarning o'qituvchilari va ota-onalari uchun uslubiy tavsiyalar hisobga olindi va RF maktabgacha ta'lim tizimining o'qituvchilari,Federal davlat ta'lim standartini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlanayotgan muhitni tashkil etish har bir bolaning moyilligini, qiziqishini hisobga olgan holda uning individualligini eng samarali ravishda rivojlantirishga imkon beradigan tarzda qurilgan faoliyat darajasi Federal ta'lim standartiga o'tish bilan bog'liq holda bizning maktabgacha ta'lim muassasamiz o'qituvchilari atrof-muhitni bolalarning bilim, hissiy, motorli faolligini rag'batlantiruvchi elementlar bilan boyitish zarurati muammosiga duch kelishdi.Boy predmetlarni rivojlantiruvchi va tarbiyaviy muhit har bir bolaning hayajonli, mazmunli hayotini va ko'p qirrali rivojlanishini tashkil etish uchun asos bo'ladi. Rivojlanayotgan predmet muhiti bola shaxsini shakllantirishning asosiy vositasi va uning bilim va ijtimoiy tajribasining manbai hisoblanadi.Biz bolalar bog'chasida bolalarni o'rab turgan atrof-muhit ularning hayoti xavfsizligini ta'minlashi, sog'lig'ini yaxshilashga va ularning har birining tanasini qattiqlashishiga, shuningdek, bolalarning bilim, badiiy va estetik qobiliyatlarini rivojlanishiga turki berishga harakat qilamiz.Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari predmet-fazoviy rivojlanish muhitini yaratishda quyidagi tamoyillarni hisobga oldilar:

Atrof muhit ta'lim, rivojlantirish, tarbiyalash, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funktsiyalarni bajarishi kerak. Ammo eng muhimi, u bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirish uchun ishlashi kerak.

Joydan egiluvchan va o'zgaruvchan foydalanish talab etiladi. Atrof-muhit bolaning ehtiyojlari va manfaatlariga xizmat qilishi kerak.

Buyumlarning shakli va dizayni bolalar xavfsizligi va yoshiga qaratilgan. Dekor elementlari osongina almashtirilishi kerak. Har bir guruhda bolalarning eksperimental faoliyati uchun joy ajratish kerak. Guruh xonasida rivojlanayotgan makon yaratishda o'yin faoliyatining etakchi roli hisobga olingan.

Guruhnинг mavzuni rivojlantiruvchi muhiti bolalarning yosh xususiyatlariga, o'qish davriga qarab o'zgaradi. Mavzu muhiti sozlash va rivojlantirishga qodir bo'lgan ochiq, ochiq tizim xarakteriga ega bo'lishi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, atrof-muhit nafaqat rivojlanmoqda, balki rivojlantirilmoqda. Har qanday sharoitda ham bolani o'rab turgan ob'ektiv dunyo ma'lum bir yoshdagi neoplazmalarga moslashib, to'ldirilishi va yangilanishi kerak.

**Bizning bolalar bog'chamizda barcha guruhlar quyidagilar bilan jihozlangan:**

**o'yin faoliyati uchun materiallar va jihozlar;**

**samarali faoliyat uchun materiallar va jihozlar;**

**bilim va tadqiqot faoliyati uchun materiallar va jihozlar;**

**jismoniy mashqlar uchun materiallar va jihozlar.**

Ta'lim muassasasi uchun quydagilar sotib olinadi: interaktiv uskunalar; tarbiyachilarning ish joyini jihozlash va bolalar bilan tadbirlarni tashkil etish. Muassasa guruhlarni har qanday magnit, metall, yog'och, yumshoq polimer, LEGO konstruktordari bilan to'ldiriladi; mantiqni, e'tiborni, xotirani rivojlantirish uchun muallifning o'quv o'yinlari: BP Nikitin ("Unicub", "Naqshni katla"), Z. Dieneshning mantiqiy bloklari, K. Isener tayoqchalari, jumboqlar.

Bolalar bilan samarali faoliyatni tashkil etish uchun (rasm, modellashtirish, aplikatsiya, qo'l mehnati, qum bilan to'plamlar sotib olinadi. Kinetik qum bolaga cheksiz imkoniyatlar beradi, chunki u o'zining plastisitivligi va ravonligi tufayli xayolotni, ijodiy chiziqni, qum bilan ishslashni rivojlantiradi, o'zi bolalarning barmoqlarini ishslashga o'rgatadi, miya faoliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan nozik motorikalarga ta'sir qiladi. Uning ko'p qirraliligi cheksiz yosh malakasiga bog'liq, shuning uchun u maktabgacha ta'lim

muassasalariga moslashish davrida ham bolalarni salbiy tajribalardan chalg'itish, hissiy stresslarni kamaytirish va yoshi kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishslashda qo'llaniladi. Shuningdek, ehtiyojga qarab, ular didaktik va namoyish materiallari, rivojlantiruvchi o'yinlar, rolli o'yinlar uchun kostyumlar, sport va musiqiy jihozlar, o'yinchoqlar, logopedik va defektologik mashg'ulotlar uchun jihozlar, teatr tadbirlarini sotib olishdi. , va boshqalar.

O'yinlar uchun narsalar shkaflar va javonlarning ochiq javonlarida saqlanadi. O'rta va kichik o'lchamdagи o'yinchoqlar bolalar o'z xohishiga ko'ra mustaqil o'yin uchun foydalanadilar. Erkin foydalanish mumkin, ochiq va yopiq shkaflarning javonlarida mozaika, kublar, stol-bosma va didaktik o'yinlar saqlanadi.

Nutqni rivojlantirish uchun yaratilgan:

- hikoyalar, kartotekalar, Lotolar, didaktik o'yinlar yaratish uchun bir qator hikoyalar;
- bolalar kutubxonasi, dastur bo'yicha kitoblar, bolalarning sevimli asarlari, ensiklopediyalar, bolalar jurnallari va boshqalar.;
- teatrning turli xil turlari bilan teatrlash burchagi, doska katta va kichik ekranlar, kostyumlar, bosh kiyimlar, maskalar, bolalar qo'shiqlari va ertaklari bilan audio kassetalar mavjud.

Aqliy rivojlanish uchun yaratilgan:

- tarqatish hisoblash materiallari, raqamlar to'plami, matematik belgilari, geometrik shakllar, qiziqarli va informatsion matematik materiallar, mantiqiy-matematik o'yinlar, sxemalar va rejalar, geometrik shakllar to'plami bilan matematik burchak;
- tabiiy materiallar, bo'shashgan mahsulotlar, turli xil imkoniyatlar, tabiat taqvimi, yopiq o'simliklar, soatlar bilan tajriba burchagi.

Estetik rivojlanish uchun yaratilgan:

- turli xil qog'oz turlari, rangli kitoblar, qalamlar, markerlar, plastilin, bo'yoqlar va boshqalar bilan badiiy ijod burchagi.;
- lenta yozuvchisi, audio kamerasi, bolalar musiqa asboblari, kompozitorlarning portretlari bilan musiqa burchagi.

Kognitiv faoliyat uchun ta'lim maydoni psixologik-pedagogik, estetik va sanitariya-gigiyena talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Guruh xonalarini yoritishga katta e'tibor beriladi, chunki fiziologik jihatdan tashqari, u psixologik ahamiyatga ham egadir. Guruhlarda hikoya-rol o'yinlari uchun bolalarning yoshi va jinsiga mos keladigan atributlar mavjud.

Yosh guruhda mashinalar va boshqa vosita o'yinchoqlari mavjud. Bolalar bog'chasingning katta guruhlarida sevimli mashg'ulotlari bo'lgan bolalar Lego dizaynerlari tomonidan ijro etiladi. O'yinda kichik o'yinchoqlar, hayvon figuralari, odamlar, mashinalar, yumshoq o'yinchoqlar mavjud.

Fan va rivojlanish muhitini yaratishda mintaqaviy komponent o'qituvchilar tomonidan hisobga olinadi: badiiy ish uchun albomlar, fantastika, chiqindi va tabiiy materiallar.

Ota-onalar uchun axborot burchaklari bezatilgan bo'lib, ular guruh faoliyati (kun tartibi, mashg'ulotlar jadvali), tadbirlar haqida bilib olishadi. Bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilardan kerakli ma'lumotlarni (maslahatlar, tavsiyalar, eslatmalar) olinadi. Bolalar ijodiyotining burchaklari mavjud.

Rivojlanish muhitini tashkil etish uchun quyidagi xulosalar chiqarilishi mumkin:

- Guruh binolarida materiallar va uskunalar gigiena, pedagogik va estetik talablarni hisobga olgan holda tanlanadi.
- Har bir guruh farzandlarining shaxsiy manfaatlari, moyilligi va ehtiyojlari aniqlandi va qondirildi.
- Har bir guruhda mavjud bo'lgan o'g'il-qizlarning haqiqiy soniga asoslangan uskunalar va materiallarning mavjudligi.
- Materiallar va jihozlarni joylashtirishda guruh xonasining bo'sh joyining nisbati hisobga olinadi: faol faoliyat sohasi-50%, tinch faoliyat sektori – 20%, ish sektori – 30% (lekin har bir guruh xonasining maydoni cheklangan xonani eng yaxshi tarzda ishlatalishga imkon beradi).

Shu bilan birga, bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun jihozlarni to'ldirish, shuningdek, bilim va nutqni rivojlantirish uchun mavjud tarqatma materiallarni yangilash kerak. Bolalar bog'chasida ob'ekt-makon muhitini tashkil etishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining murakkab, ko'p qirrali va yuqori ijodiy faoliyati talab etiladi. Rivojlantirish muhitini tashkil etish uchun innovatsion yondashuvlarni qidirishni, shuningdek, ushbu muammoni hal qilishda ota-onalarning qiziqishini rivojlantirishni va o'zaro hamkorlik qilish istagini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.<sup>6</sup>

Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim bu bolalar uchun rivojlantiruvchi muhitni yaratish, qiziqishi va ehtiyojiga ko'ra o'quv dasturini tanlash huquqini, munosabat va

---

<sup>6</sup>[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlarini beradi. Ushbu ta’lim bolaga mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirish uchun erkinlik beradi, bolalarning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi.Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. “Rivojlanish”, “Erkinlik”, “Mustaqillik”, “Ijad”, “O‘ziga xoslik” shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kalit so‘zlari hisoblanadi.

**Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim** ya’ni rivojlantiruvchi muhitning o‘ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko‘ra emas, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, tabiat xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi.

Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi”.<sup>7</sup>

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsini shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan rivojlantiruvchi muhitda tashkil etiladi.Bolaga yo‘naltirilgan ta’limda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati nihoyatda katta. Bola rivojlantiruvchi muhitdagi ta’limiy materiallar orqali o‘z ustida ishlaydi va o‘zini shakllantiradi.Bolaga yo‘naltirilgan ta’limda rivojlantiruvchi muhitdagi markazlar: san’at, matematika, tabiat, qurish-yasash, ochiq maydoncha, sahnalashtirish, adabiyot, pazandachilik, musiqa, qum va suv.

Hozirda maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish jiddiy ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun esa, avvalo, pedagog-tarbiyachilarining o‘zlari ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Buning uchun

<sup>7</sup>Ilk qadam davlat o‘quv dasturi 14-18 b

ushbu masalalarni mактабгача та’лим муассасаси тарбиячилари малақасини ошириш курсларida о‘ргатиб борилмоқда.

Zamonaviy pedagogik-texnologiyalarning turlari va yo‘nalishlari ko‘p bo‘lib, ulardan mактабгача та’лим муассасаси ларда ko‘проq qo‘llaniladiganларидан bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, didaktik o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalash методи va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Shu jumladan, mактабгача та’лим муассасасида pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishga zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi.

Bulardan aqliy hujum va klaster (tarmoqlash) metodlari turli mavzularda ko‘проq ishlatalib, turlicha talqin etiladi. Masalan, klaster usulining turli mavzularga moslashtirilgan holda qo‘llanish shakllari klaster-chambarak, klaster-oval, klaster-yulduzcha, klaster-uzum shodasi va shu kabilardan iborat.

Hozirda mактабгача та’лим муассасасида та’лим-тарбиya jarayoni sifati va samaradorligini оширишда zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish jiddiy ahamiyatga ega. Buni amalga ошириш учун esa, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning o‘злари ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Buning учун ushbu masalalarni mактабгача та’лим муассасаси тарбиячилари малақасини ошириш курсларida о‘ргатиб борилмоқда.

Zamonaviy pedagogik-texnologiyalarning turlari va yo‘nalishlari ko‘p bo‘lib, ulardan mактабгача та’лим муассасаси ларда ko‘проq qo‘llaniladiganларидан bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, didaktik o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalash методи va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Shu jumladan, mактабгача та’лим муассасасида pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishga zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg‘or pedagogik tehnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi.

O‘yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg‘ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o‘ynashlari учун 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yinga vaqt

beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetli-rolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, qo‘g’irchoqlar bilan, stol usti o‘yinchoqlari o‘ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi. Ammo o‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog’liqlik bola ulg’aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg’ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagi o‘qishga ishtiyoq uyg’onib qoladi. Ammo bolalar uchun o‘yining qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi o‘yinlar qiziqtira boshlaydi.

Shunday qilib, pedagogika fani o‘yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashqil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

## **II.2.Maktabgacha katta yoshdagি bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish usullari**

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi maktabgacha ta’limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg‘or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha

yoshdagи bolalar rivojlanishiga qо‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejorashtiriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli mакtab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan

1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’midot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.
2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruхlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruхda ishslashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalg etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

- 1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘sirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)**
- 2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yassash va matematika mashg‘ulotlari)**
- 3. San’at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)**
- 4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruх yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)**
- 5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)**
- 6. (Musiqa markazi)**

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to‘htaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarni o‘yin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam sig‘adi” degan jumlalarni eshitasiz.

Demak bolalarning muloqatida qo'shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkonи mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatлari qo'llab-quvvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkonи yaratiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib o'tilgan markazlar faoliyati bolani mакtab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o'rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib o'tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagи bolaning rivojlanish xaritasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatliligi va samaradorligini aniqlaydi. Masalan boladagi,

### **1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**

### **2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

### **3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmaları**

#### **4. Bilim olish (anglash orqali rivojlanish)**

#### **5. Ijodiy rivojlanish** kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy me’zonlar sanaladi.

O’quv yili yakuniga yetgandan so‘ng maktabga tayyorlov guruhi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoringa asosan amalga oshirilgan ishlarni kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o‘tkaziladi va bu orqali Maktabgacha ta’lim tashkilotining keyingi o‘quv yiliga mo‘ljallangan ustivor vazifalarini belgilaydi.

Bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta’limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlarga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Didaktik o‘yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg’ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Bunday o‘yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o‘yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun «Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko‘proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg’ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiraladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradilar. Didaktik o‘yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bo‘lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag’ishlaydi. Didaktik o‘yining muhim tomoni – uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g’oyadir. O‘yin g’oyasi bolalarda o‘yinga qiziqish uyg’otadi, ko‘pincha bu g’oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi. Masalan, «Xaltachada nima bor?», yoki «Kim qanday qichqiradi» va shunga o‘xshashlar. Har bir didaktik o‘yinda o‘yin mazmuni, g’oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo‘ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o‘ynalishini yoki o‘yining borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatini boshqarib, kerak tomonga o‘ylantirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o‘lchovdir. Didaktik o‘yinda amal qilinadigan qoidalar o‘yin harakatlarining

to‘g’ri noto‘g’riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan “U o‘yin qoidasini buzib o‘ynayapti” deyishlarining o‘zi ularning o‘yin qoidalariga qandaydir o‘zgartirib bo‘lmaydigan qonundek munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatadi. Bolalarning o‘yin qoidalarini o‘rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o‘yin jarayonida o‘zini-o‘zi, o‘zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. O‘yining natijasini ikki nuqtayi nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Agar o‘yin natijasini bolalar nuqtayi nazaridan baholaganda, unda bu o‘yindan bolalar qanday ma’naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma’lum darajada zo‘r berishni, ya’ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi.

Bolalar fahm-farosatlari, topog’onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bularning hammasi bolalarning o‘z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini xursandchilik hissi bilan to‘ldiradi, ular bunday ma’naviy qoniqish hosil qiladilar. Didaktik o‘yining natijasini muhokama qiladigan tarbiyachi quyidagilarga e’tibor berishi lozim: qo‘yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko‘zlangan nuqtayi nazardan ma’lum natjalarga erishildimi yoki yo‘qmi.

Yuqorida keltirilgan ikki vazifa ham yaxshi bajarilsa, ya’ni bir tomonidan, bolalarda qiziqish uyg’ota olsa va ular faoliyatini amalga oshirishga intilsalar, ikkinchi tomonidan, qo‘yilgan hamma maqsad, vazifaga erishilsa, bunday o‘yin yaxshi natija beradi, deb hisoblash mumkin.

O‘yin qatnashchilarini rag’batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun yetakchi rolni berish, ba’zan esa shu o‘yinda foydalanilgan o‘yinchoqni o‘ynashga berish yoki mevalarni yeysishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo‘l bilan bu ishga intilishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. O‘yin harakatli bolalar tomonidan bajariladi. O‘yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish, yig’ishtirish, ularning rangiga, katta kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hakozolarda nomoyon bo‘ladi. Katta bolalarning o‘yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o‘yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o‘rtasida o‘zaro bog’lanish bo‘lishini, harakatlarning izchillik va navbatli bilan amalga oshirilishini talab etadi. O‘yin natijasi didaktik o‘yining muayyan natijasi bo‘ladi, natija esa o‘yining finali hisoblanadi. Masalan. Topishmoqlarni topish, berilgan o‘yin

topshiriqlarini bajarish, fahm-farosatni nomoyon qilish kabilar o‘yin natijasi bo‘lib bo‘lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar. O‘yin mazmuni, g’oyasi, harakatlari va qoidalari o‘zaro bir-biri bilan bog’langan bo‘lib, xatto ulardan birortasi bo‘lmasa ham o‘yinni o‘tkazib bo‘lmaydi.

Didaktik o‘yining o‘yin faoliyati sifatidagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o‘zaro munosabatlari o‘yin tarzida bo‘ladi. Tarbiyachi o‘yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha o‘yin mazmuni bilan belgilanadigan va o‘yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. Masalan, “Magazin” o‘yinida bilish mazmuni shundan iboratki, haridor bolalar o‘zlari sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishlari, sotuvchi bolalar esa talab qilingan narsaning nimaligini haridor aytgan belgilar bo‘yicha bilib olishlari kerak. O‘yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O‘yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko‘rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O‘yin qoidalari haridorning oladigan narsasini tanlab olish, sotuvchiga xushmuomala bo‘lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko‘rib chiqish va boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytish va pul to‘lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa haridor gapirganda ularni zo‘r e’tibor bilan tinglash, so‘zlarini bo‘lmaslik, so‘ragan buyumlarni olib, qog’ozga o‘rab berishdan iborat bo‘ladi.

Ko‘pincha didaktik o‘yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o‘z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishiga o‘rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini nomoyon qilishga talab etadi. Masalan, “Ajoyib haltacha” o‘yinida bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan o‘yinchoqni tasvirlab berish vazifikasi yuklatiladi, buning uchun esa bola o‘yinchoqni boshdan – oyoq yaxshilab ko‘zdan kechirish va uning o‘ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo‘ladi.

Didaktik o‘yinning mazmuni va turlari. Didaktik o‘yinning mazmuni “Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya dasturi” da bayon qilingan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- A) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to‘g’risida bilimlar berish;
- B) mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to‘g’risidagi bilimlar;
- V) tabiat voqealari, narsalar buyumlar, yil fasllari to‘g’risidagi bilimlar;
- G) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Didaktik o‘yinlar ularning ta’lim tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog’chasinging ta’lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruqlar ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhning o‘ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda didaktik o‘yining tutgan o‘rni va vazifasi, mazmuni, o‘tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlardan asosiy maqsad- bolalarni ranglarni bir-biridan farqlash va nomini aytishga o‘rgatish, har xil o‘lchamlar (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha), bilishga, ko‘rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o‘stirishga yordam beradi. Masalan, “Juft kartochkalar”, “Kattalar va kichkinalar”, “Qo‘g’irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz”, “Qo‘g’irchoqni cho‘miltiramiz”, “Bu nimaning ovozi?”, “Xaltachada nima bor?” va shunga o‘xhash o‘yinlar.Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o‘rgatish uchun musiqaviy didaktik o‘yinlar ham o‘tkaziladi.Ikkinci kichik guruhda esa didaktik o‘yinlar quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi: bolalarda didaktik o‘yinchoqlar bilan yakkama-yakka o‘ynash ko‘nikmasini rivojlantirish, jamoa o‘yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajratib olish, katta kichikligiga qarab farqlash; halqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to‘rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan “Idish tovoqlarimiz”, “O‘yinchoqlar” kabilarning tasvirini yig’ish; narsalarni farqlash va nomini to‘g’ri aytishga o‘rgatish va hokazo. Musiqaviy – didaktik o‘yinlarda esa musiqa ovozlarining ba’zi bir xususiyatlarini farq qilishga o‘rgatish, qadam va yugurish ritmi (“Kim kelayotir”, “Sichqonlar yugurishayotir”) ovoz va cholq’u asboblari tembrlarini (“Musiqaviy o‘yinchoqni o‘ylab top”, “Ovozidan bilib ol” ajrata bilishga o‘rgatish vazifalari ham hal etiladi.

O‘rta guruhda didaktik o‘yinlar orqali bolalar eshitish, ko‘rish, sezish a’zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalarni bilib olish, narsalarni tashqi ko‘rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o‘rgatish vazifalari amalga oshiriladi.Yana didaktik o‘yin davomida bolalar o‘rtaga quyilgan masalani hal etishda sabr-matonatlari bo‘lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-etiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-didaktik o‘yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir biridan farq qila olishga o‘rgatib boriladi.

Katta guruuhda didaktik o‘yinlar quydagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo‘yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materallarni sezalish, narsalarning joylanishidagi o‘zgarishlarni) aytib bera olish kabi senssor qobilyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o‘simlik, transport ta’rif-tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa bilish malakasini o‘stirish, bolalarning umumiylashtirishini, buyumlarni umumiylashtirishini qarab guruhlarga bo‘lish qobilyatini rivojlantirish, so‘z faolligini faollashtirish va to‘ldirish; qisimlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o‘stirish. Musiqaviy didaktik-o‘yinlar orqali tovushlarni bir biridan farq qilishni o‘rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg‘u asboblari ovozining tembrini farq qilish (“Kim kuylayapti?” “Shiqildoqli childirma”), ovozning dinamikasini ajrata olish (“tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalaga oshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruuhida didaktik o‘yinlar hamma yosh guruuhlaridagi kabi alohida o‘rin tutadi va bu guruuhda didaktik o‘yinlar orqali quydagi ta’lim – tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o‘yinlarga qiziqish uyg‘otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tibor, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo‘lishda yordamlashuvchi o‘yinlarni, doimo, mozaikaning har xil turlarini, shashka, sakrovchi biryulkalarni jumboq o‘yinlar, og‘zaki o‘yinlar (“Dengiz to‘lqillanmoqda”, “Qora va oq”), ranglarni va ulardagisi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o‘rgatadigan o‘yinlar o‘tkaziladi. Musiqaviy-didaktik o‘yinlar orqali esa bolalarni tovushlarga diqqat bilan qulog solishga (“Tovushlarni takrorla”, “Ikki metalafonni galma-gal chalish” vah.k) ritmik shaklni gavdalantirib berishga (“O‘z ritmingni o‘ylab ol”, “Bolalar va filchalar”), dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga (“Ovchilar va quyonlar”) o‘rgatiladi. Narsalar bilan o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlardan tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning xususiyatlari, va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari bilan, ularni ishlatish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi. Bolalarning narsalar, ularni sifati to‘g’risida bilimlarni mustahkamlash uchun har xil o‘yinchoqlar, suratlar, uy-ro‘zg’or buyumlaridan foydalaniladi.

O‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. “Xaltachada nima bor?” o‘yinning maqsadi o‘yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o‘yinchoqlar to‘g’risida bilimlarni mustahkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. “Bu nima?” o‘yinida bolalar

qo‘g’irchoqqa har xil narsalar va ularni ishlatilishi to‘g’risida gapirib beradilar. Bunday o‘yin guruhda, bog’cha maydonchasida, uxlash xonasida o‘tkazilishi mumkin.

Didaktik o‘yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o‘rni haqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o‘yinchoq o‘zining aniq tashqi ko‘rinishiga ega bo‘lishi kerak, o‘yinda esa qo‘yilgan maqsad narsaning asosiy begisini ajrata bilishga imkon tug’dirishi lozim.Bunday talabga xalq o‘yinlari o‘z shakliningi aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko‘proq javob bera oladi.

Bolalarni o‘ylashga, aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o‘yinlar ham katta ahamiyatga ega.Bolalarning rang haqidagi tushunchalarini mustahkamlash va aniqlash uchun quyidagi o‘yinlar o‘tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to‘plash, “Dumaloqni dumalatish”, halqachalarni ipga o‘tkazish, “Shu rangdagi dumaloqni dumalatish”, “Kimda mana bu rangdagi halqacha bor”, “Kim mana bu rangdagi haltachani topa oladi” va x.k..

Shakl, rang predmetlarning asosiy belgisidir. Shakl to‘g’risida tushunchalarini “Xaltachada nima bor”, “Nima o‘zgardi?”, “O‘yinchoqlar do‘koni”, “Qo‘g’irchoqni kiyintiramiz”, “Bu nima?” va boshqa o‘yinlar orqali aniqlash va mustaxkamlash mumkin.Qo‘g’irchoq-bolalarning eng sevimli o‘yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog’chasida didaktik jihozlangan o‘yinchoq bo‘lishi kerak. Qo‘g’irchoq jihozlariga kiyim, ichki kiyim, poyabzal, idish-tovoq, mebel o‘yinchoqlar kiradi.Qo‘g’irchoq bilan quyidagi o‘yinlarni o‘tkazish mumkin: “Qo‘g’irchoqni kiyintiramiz”, “Qo‘g’irchoqni sayrga otlantiramiz”, “Qo‘g’irchoqni mehmon qilamiz”, “Qo‘g’irchoqlar bayrami”, “Qo‘g’irchoqning tug’ilgan kuni”, “Qo‘g’irchoqni uxlamatamiz”.O‘yinlar topishmoqlar bilan qo‘sib olib borilganda qiziqarli o‘tadi. Masalan, “Qo‘g’irchokni uxlamatamiz” o‘yinida qo‘g’irchoqqa karovat tayyorlayotganda tarbiyachi “Uzun, yumshoq, yo‘l-yo‘l.....” (matras), “Oq, toza, to‘rt burchak...” (yastiq), “Paxtali issiq...” yoki “junli issiq”(adyol) va boshqa topishmoqlarni aytishi mumkin. Qo‘g’irchoqning karovati tayyor bo‘lgandan keyin qo‘g’irchoqni yotqizib, “alla” aytadi.Mebellarning nimaga ishlatilishi, o‘yinchoqlarning nomini mustahkamlash uchun “Qo‘g’irchoqqa xona yasatamiz”, “Qo‘g’irchoqqa o‘yinchoq sovg’a qilamiz” kabi o‘yinlarni o‘tkazish mumkin.Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi sifatlari, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina qolmay, muayyan predmetlar orqali ularni oddiy

turlarga ajratishni o'rgatib boradi; ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar; kastryulka, tarelka, choynak-idish-tovoq.

O'yinlarni narsa va buyumlarni tasvirli rasmlar orqali ham o'tkazish mumkin. Bulariga "Bu narsa o'zi to'g'risida nima deydi?", "Kim birinchi bo'lib aytib beradi?" (bolalarni diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), "Kim bo'ladi?" "Qaysinisi bir xil qaysinisi har xil?" kabi o'yinlarni ko'rsatsa bo'ladi. Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun "Hidiga qarab top", "Mazasiga qarab top", "Ushlab ko'rib top", "Kim nimani eshityapti" kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kichik yoshdagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi.

Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jihatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkaza qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun kerakligi va hakozolar to'g'risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustahkamlanadi. Bunday o'yinlaga quydagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Nima nimadan yasalgan?", "Guruh xonasiga sayohat", "Ovoziga qarab top" va boshqalar.

Umumlashtirishga o'rgatish bo'yicha turlarga ajratishni o'rgatuvchi o'yinlar katta o'rin egallaydi. "Qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?", "Fabrikada nima ish qilinadi", "Dalada nima yetishtiriladi?", "Kimga nima kerak?" "Kim nima bilan ishlaydi?", "Qaerda o'sadi?", "Sayohat"(shahar bo'ylab, dalaga mакtabga va hokazo), "Pochta" va boshqalar.

Bolalarda dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Masalan, "Kim sanashni biladi?", "Yuramiz, yuramiz-to'xtaymiz", "Bizning kun", "Yil fasllari" va boshqalar.

Bolalarni nutqini rivojlantirish uchun quydagи o'yinlarni o'tkazish mumkin: "So'z qo'sh", "Orkestr", "Mana bu tovushga so'z top", "So'zlardan hikoya tuz" va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan jamoa o'yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o'yinlar topish mumkin.

Didaktik o'ynlarga rahbarlik. Boshqa o'yinlar singari, didaktik o'ynlarga ham tarbiyachi rahbarlik qilishi lozim. Birinchi navbatda didaktik o'yinni va unga kerakli materialni tanlash kerak. Hamma guruhlар didaktik jihozlarga, bo'yi 40-50 sm keladigan qo'g'irchoqqa ega bo'lishi lozim. Uning jihoziga quydagilar kiradi:

- ichki kiyim, ko‘ylak, ishton, rezinka, uzun paypoq;
- pahmoq, satin, shoyi ko‘ylak, fartuk, so‘lakcha;
- qishlik palto, kuzlik palto;
- bosh kiyimlar: shapkacha, panasma, qalqopcha, shlyapacha;
- poyabzal: tuqli sandal, yumshoq shippak;
- yotadigan va oshxonada ishlataladigan narsalar - ko‘rpa yostiq matras, adyol, choyshab, ko‘rpa jildi, yostiq jildi, sochiq, dasturxon, salfetka.

Bu hamma narsalar o‘ziga mos rangda (qizil, pushti, to‘q qizil va x.k.) har xil sifatli gazzmoldan tizilgan va nomi har xil bo‘lishi kerak.

Qo‘g’irchoqdan tashqari har xil hayvonlar, qushlar, idish-tovoqlar, va transportni aks ettiruvchi o‘yinchoqlar ham bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturiga muvofiq bir qancha rasmlar turkumi bo‘lishi kerak:

- A) kishilarning polizdag‘i, uy sharoitidagi mehnatini aks ettiruvchi, ularning mehnatini yengillatuvchi mashinalar rasmlari;
- B) kishilarning turar joylarini aks etiruvchi rasmlar;
- V) kishilarni suvda, quriqlikda, havoda olib yuruvchi vositalarning rasmlari;
- G) uy jihozlari:idish-tovoq, mebel, madaniyat buyumlari, bezakli buyumlar, o‘yinchoqlar;
- D) dasturxon, choyshab, sochiq, yostiq jildi, qishki, yozgi, bahorgi, kuzgi ko‘ylaklar, boshkiyim, yil fasllariga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlar;
- E) iste’mol mollari; sabzavotlar, mevalar, uy mahsulotlari, shirinliklar;
- J) uy va yovvoyi hayvonlar;
- Z) daraxtlar, butalar, gullar va boshqa o‘simgiliklar;
- I) qushlar.

Bu rasmlar asta-sekin to‘planib boriladi. Ular yirik (15-20sm) va karton qog’ozlarga yopishtirilgan bo‘lishi kerak.

Didaktik o‘yinlarda tabiat materiallari va oddiy narsalar ham ishlataladi.

Didaktik o‘yinlarga maxsus o‘rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma’lum joy olishi kerak. Didaktik o‘yinlarni mashg’ulot bilan bog’lab olib borishni yaxshilab o‘ylab amalga oshirish lozim.

Bu o‘yinlar mashg’ulot va o‘yin soatlarida o‘tkaziladi. Ularni butun guruh bolalari bilan ham o‘tkazish mumkin.

O'yining mazmuni va undan kelib chiqadigan natija oldindan yaxshilab, aniq o'ylab olinadi.

O'yining g'oyasi o'yin harakatlari, qoidasi va o'yining borishi shunga bog'liqdir. Masalan,

"Kim qanday qichqiradi?" o'yinida har xil vazifa qo'yilishi mumkin:

1) bolalarning hayvonlar tovushi bilish-bilmasliklarini aniqlab olish;

2) hayvonlar haqida tushuncha berish;

3) bolalar hayvonlarni tovushidan tanib oladimi-yo'qligini bilish.

Bu o'yindan bolalarga tovushlarni talaffuz qilishni mashq qildirish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlarda majburiy qoidalar juda ko'p uchraydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so'raganda javob berish, o'rtog'iga quloq solish, o'ynaganda boshqalarga halaqit bermaslik, qoidani bajarish, o'z ayibiga iqror bo'lish va h.k

Didaktik o'yinlarda bolalarning o'ziga xos hususiyatlari hisobga olinadi. Bir xil bolalarga qiyin topishmoq aytilda, boshqasiga yengilrog'i, osonrog'i aytildi; yomon gapiradigan bolalar ko'proq gapirishga jalg qilinadi. Buning uchun o'yinni o'tkazishdan avval hamma bolalarni yaxshilab eslab, o'yining imkoniyatlarini, harakatlariga qarab topishmoq beriladi, ba'zi bir faolroq bolalarga boshqalarni qiziqishini bo'g'maydigan rol biriktiriladi.

Didaktik o'yinga rahbarlik qilishda o'yining maqsad va mazmunini belgilash, o'yin g'oyasini o'ylab topish, o'yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish, bolalar o'rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta'sir orqali o'yinni borishga rahbarlik qilib borish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Didaktik o'yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O'yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta mahoratdir.

Tarbiyachi o'yin vaqtini o'zining tushintirishini kamaytirish hisobiga siqishtiradi. O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni hoxlab qolsinlar. Tarbiyachi shunday deydi: "Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o'ynaymiz". Yoki "Yangi o'yin bundan ham qiziqroq bo'ladi".

Tarbiyachi o'yining yangi variantlarini ishlab chiqadi. Didaktik o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o'rmonda, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yining ta'sirchanligini, taassurotlarning har xillagini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, didaktik o'yin maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: Ishtirokchilar kayfiyatini ko'taruvchi,

Hamkorlikka chorlovchi, Ishtirokchilarni o`zligini namoyon etishga chorlovchi, Ishtirokchilarda o`ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, Jismoniy va intellektual muammolarni yo`qotishga qaratilgan, Ishtirokchilar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnosika), Bolalar shaxsi srukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi, Millatlararo bag`rikenglikni shakllantiruvchi, Yoshlarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o`yinlar.

### **O`yin texnologiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:**

Faoliyat turlariga qarab ijtimoiy, intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o`yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta`lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsulotli, ijodiy, psixotexnik o`yinlar.O`yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o`yinlar.

Predmetlar asosidagi o`yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o`yinlar.

O`yinni o`tkazishda albatta umumiyligini qoidalarni hisobga olish va ularga amal qilish lozim: O`yining emotsional ta`sirchanlik qobiliyati; o`yinning jadalligi va sur`ati; qiziqtirish va sirlilik (o`yinga jalb qilish); bahslashish; o`yindan chiqariladigan xulosa.

### **Ikkinci bob bo'yicha xulosa**

Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarda axloqiy-irodaviy sifatlar: mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik kabilarni shakllantirish ularning muvaffaqiyatli o`qishiga,turtki beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Bolajonlar faoliyatining har bir turi (o'yinlar, mashg'ulotlar, mehnat) maktabgacha yoshdagi bolaning axloq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muayyan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun eng qulay imkoniyatlar yaratadi. Faoliyatning har xil turlari tarbiya jarayonida shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirish bilan bir vaqtida shu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikmalarni egallab oladi. Buning asosida bolada har xil shaxsiy qobiliyat va xususiyatlar shakllana borib, uning faolligi Bolajonni tarbiyaning obyekti va subyektiga aylantiradi. Bolajonning rivojlanishida faoliyatning yetakchi rol o'ynashi ana shu bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni bolalar birdaniga o'zlashtira olmaydilar, ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. Faoliyatlarni muvaffaqiyatli egallab olishlari asosan oilada, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya ishining qay darajada tashkil etilishiga bog'liqdir.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

### **III bob.Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish metodikasi.**

#### **III.1. Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo'yicha tajriba-sinov ishlari.**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'lim va boshqa turdagи muassasalariga tashriflar uyushtirilib ularning faoliyati o'r ganildi, jumladan bog'chalarning o'ziga xos jihatlari, qo'llanilayotgan ta'lim berish uslublari, moliyalashtirish va to'lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroflicha o'r ganildi. O'zbekistonda eksperimental tarzda

bolalar bog‘chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.<sup>8</sup>

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari o‘tkazish davomida Koreyaning maktabgacha ta’lim sohasidagi tajribalari o‘rganildi va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo’llash bo‘yicha ma’lumotlar to’plandi.

Tadqiqot ishi III bosqichda olib borildi.

#### 1. Aniqlovchi tajriba-sinov ishlari

Bu bosqichda ish 2 yo‘nalishda olib borildi:

A) nazariy tahlil:

Bunda mutafakkir va ma’rifatparvarlar, pedagoglar, psixologlarning asarlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

B) amaliyotni o‘rganish:

Bunda pedagogik jarayon kuzatildi, uslubchi ,tarbiyachilar bilan so‘rovnomalari o‘tkazildi.

#### 2. Shakllantiruvchi (bilim beruvchi) tajriba-sinov ishlari.

Bu bosqichda maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida suhbatlar o‘tkazildi.

#### 3. Solishtiruvchi tajriba-sinov ishlari.

Bu bosqichda mudira,tarbiyachi va maktabga tayyorlov guruhi bolalarini shakllantiruvchi tajribagacha va undan keyingi bilim darajalari bir-biriga solishtirilib tahlil qilindi.

Psixologiya va pedagogika fanlari sohasidagi adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish muammosi etaryli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiq etilayotgan muammoni amaliyotdagi holatini o‘rganish maqsadida aniqlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Toshkent shahar, Bo’stonliq tumanidagi № 17- sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishida uslubchi,10 ta tarbiyachi, 22 ta tarbiyalanuvchi ishtirok etdi.

---

<sup>8</sup> [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

Aniqlovchi tajriba 2021 yilning fevral , mart oylarida olib borildi. Aniqlovchi tajribaning maqsadi: Didaktik o‘yinlar vositasida mакtabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning hozirgi holatini o‘rganish.

Maqsadni amalgalash uchun quyidagi materiallar tayyorlandi:

1. Pedagogik jarayonni kuzatish sxemasi.
2. Uslubchi, tarbiyachilar uchun so‘rovnama,test.
3. Tarbiyalanuvchilar uchun so‘rovnama.

Adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, Didaktik o‘yinlar vositasida mакtabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish muammosi etarli darajada o‘rganilmagan. Tarbiyachilar bu yo‘nalishda ish olib borishga qiynaladilar. Chunki ular uchun etarli darajada metodik qo‘llanmalar mavjud emas. Shuning uchun tadqiq etilayotgan muammoni amaliyotdagi holatini o‘rganish va didaktik o‘yinlar vositasida mакtabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish ish tizimini o‘rganish zaruriyati tug‘ildi.

So‘rovnomada Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisi va tarbiyachilar ishtirok etdi.

- 1.Didaktik o‘yinlar vositasida mакtabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish holati o‘rganildi ( pedagogik jarayon kuzatildi).
2. Muammoni amaliyotdagi holati o‘rganildi (bunda tarbiyachilar bilan suhbatlar,testlar o‘tkazildi).

Pedagogik jarayonning kuzatishdan maqsad: pedagog- tarbiyachilarni o‘z faoliyatlarida didaktik o‘yinlar vositasida mакtabgacha katta yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishdagi qiyinchilik va kamchiliklarni aniqlash.

Quyida pedagogik jarayonni kuzatuvidan namunalar keltiramiz: hamma pedagogik kuzatuvlar qarorlashtirilib borildi.

### **Kuzatish sxemasi.**

#### **Sana**

**Tarbiyachining I. Sh.**

**Ma’lumoti**

**Pedagogik staji**

**Mashg’ulotning nomi** \_\_\_\_\_

**Guruhi** \_\_\_\_\_

## Bolalar soni \_\_\_\_\_

Mashg'ulotning maqsadi vazifalari mazmuni.	Uslubchi- tarbiyachi faoliyati mazmuni	Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

### Qarordan ko'chirma №1.

**17.02.2021-yil**

Sana 28- fevral,2021-yil

Tarbiyachining I. Sh. M.V.Umarova

Pedagogik staji 12 yil

Mashg'ulot (faoliyat) nomi : Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markazida ishslash.

(Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish)

Bolalar soni :22

Faoliyatning maqsadi, vazifalari mazmuni.	Pedagog tarbiyachi faoliyati mazmuni	Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish
Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilga	Pedagog didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi	Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni

n markazda tarbiyachi bolalar bilan didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish , tarbiyachi tomonidan bolalar bilimini, malakalarini mustahkamlash.	muhitni qilishda metodidan foydalandi Tarbiyachilarni didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish jarayoni haqidagi bilim darajalari aniqladi.	tashkil qilishda bolalar faol qatnashdilar.
--	--	---

### Mashg’ulot(faoliyat) tahlili.

Pedagog-tarbiyachi M.V.Umarova.Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markazda tarbiyachi bolalar bilan didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bo‘yicha ko’rgazmali materiallar bilan kirgan.Pedagog o‘yin metodlaridan foydalanib pedagogik jarayonni tashkil qildi.Klaster metodi yordamida o’tilgan mavzularni mustahkamladi . Mashg’ulot davomida bolalar mustaqil o‘z ustlarida ishladilar.Lekin tarbiyachining mashg’ulot davomida didaktik o‘yinlardan foydalanish jarayonida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishi aniqlanmadı. Ular o‘rtasida muammolmi vaziyatni tashkil eta olmadi,agar muammoli vaziyat yaratilganda edi bolalar tomonidan mavzuni to‘liq o‘zlashtirilishiga erishilgan bo‘lar edi.

### Qaror №2.

**21.02. 2021 yil.**

**Qatnashdilar: uslubchi,10 nafar tarbiyachi  
Seminar-trening**

**Mavzu:** Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish: **Mnemotexnika texnologiyasini qo’llash.**

**Maqsad:** Uslubchi-tarbiyachilarga rivojlantiruvchi muhit haqida bilim berish . Katta guruhlardan boshlab, bolalarda rivojlantiruvchi muhit tashkil qilish va xotirani mustahkamlash uchun Mnemotexnika texnologiyasini qo’llash.

**Mashg‘ulot uchun materiallar:**

1. Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish sxemasi.
2. Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish - Mnemotexnika texnologiyasini slaydi.

**Seminarni borishi.**

Uslubchi-tarbiyachilarni.Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish tushunchasi bilan tanishtirish.

Tadqiqotchi : Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish ning o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish murakkab jarayondir. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jarayonda o‘yining tutgan o‘rni juda muhim bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- o‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.
- bolalarni diqqatini jamlash, ularni uyushtirish
- tajribali tarbiyachilarning ish tajribalarini o‘rganishi

2 qism- Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, Mnemotexnika texnologiyasini amaliyotda qo’llab ko’rsatildi.

Har bir uslubchi-tarbiyachilarni didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish haqida ma’lumot berilgan matn mustaqil o‘rganish uchun tarqatildi. (matn mazmuni ilovada berilgan) Mnemotexnika texnologiyasini amaliyotda qo’llash uchun ko’rgazma-slayd ko’rsatildi. (slayd mazmuni ilovada berilgan).

Seminar-treningda qo‘yilgan maqsad amalga oshirildi. Seminar-mashg‘ulotida tushuntirish, suhbat, dialog, ko‘rsatish usullaridan foydalanildi.

Shuni ta’kidlash joizki, Uslubchi-tarbiyachilarni didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qiziqish bilan tingladilar, lekin suhbatlarda passiv ishtirok etdilar, asosan 5-6 pedagog savollarga javob berdilar. Bizni fikrimizcha, tarbiyachilarni faol emasliklarini yangi ish shakliga moslashmaganliklari bilan izohlash mumkin.

### Qaror №3.

25.02. 2021- yil.

#### **Qatnashdilar: mudira, uslubchi, 10 tarbiyachi**

Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtirish.

Maqsad: tarbiyachi -pedagoglarga me’yoriy xujjalalar asosida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish haqida bilim berish.

tarbiyachi -pedagoglar uchun: ko‘rgazmali, tarqatma materiallar:

- rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish haqida tushuncha ma’lumotnomasi.
- Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish tasvirlangan sxema.

Mashg‘ulotni borishi.

1-qism: Didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish haqidagi bilimlarini aniqlash (aqliy xujum metodi) asosida.

2-qism: Didaktik o‘yinlar haqida bilim berish.

3-qism: Rivojlantiruvchi muhit sxemasi bilan ishslash.

4-qism: Uyga vazifa.

Tadqiqotchi: Bugun biz didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish haqida suhbatlashamiz.

1. Bolaga yo’naltirilgan ta’lim deganda nimani tushunasiz?

(markazlar misolida)

2. Rivojlantiruvchi ta’lim deganda nimani tushunasiz?

Tadqiqotchi: Sizlarni bergan javoblariningiz ham to‘g‘ri.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

- 1.Til va nutq markazi. (Nutq o‘sirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg’ulotlar)
- 2.Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg’ulotlari)
- 3.San’at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg’ulotlari va origami)
- 4.Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)
- 5.Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg’ulotlari)
- 6.(Musiqa va ritmika markazi)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to‘htaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.(“Suvda havoda,erda”, ”Ona tovuq va jo’jalar” didaktik o‘yinlari)

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarni o‘yin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam sig‘adi” degan jumلالарни eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo‘sish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.(“Qaysi qo’limda narsalar ortiq”, ”Shuncha doirachalar ajrat” didaktik o‘inilari)

San’at markazida bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkonи mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatları qo’llab-quvvatlanadi. San’atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to‘liq ta’minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o‘rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.(“Ko’z yumuq,qo’l ishda”, ”Nima o’zgardi” didaktik o‘inilari)

Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishi, o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. O‘yinda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni yaratiladi.(“Sholg’om”, ”Do’kon” didaktik o‘yinlar)

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarini bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o‘zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg‘otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma’lumotlar bolalarning o‘z qo‘llari bilan urug‘larni tuvakkarga sepish orqali unga suv qo‘yishi va urug‘ unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.(“Nima o‘zgardi”, ”Eslab qol” didaktik o‘yinlar)

Yuqorida izohi keltirib o‘tilgan markazlar faoliyati bolani mакtab ta’limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o‘rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib o‘tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatliligi va samaradorligini aniqlaydi. Masalan boladagi,

### **1.Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish**

### **2.Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

### **3.Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmaları**

### **4.Bilim olish (anglash orqali rivojlanish)**

Tadqiqotchi:endi tarbiyachi didaktik o‘yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda rivojlantirish markazlarida faoliyatlar aks ettirilgan sxema bilan tanishamiz.

Rivojlantirish markazlari	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni
Til va nutq markazi	Nutq o‘sirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar:”Nima uchun uchadi,yuguradi”, ”Ona tovuq va jo‘jalar”, ”Xona

	bo'ylab sayohat"
Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi	Qurush yasash va matematika mashg'ulotlar: "Menga yashil rang kerak", "Men yasagan uycha ikki qavatli", "Narsalarni taqqoslang", "Juft rasmlar", "Qaysi qo'limda narsa ortiq"
San'at markazi	Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari: "Ko'z yumuq qo'l ishda", "Ranglarni to'g'ri topa olasanmi", "Nima o'zgardi"
Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markazi	Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar: "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Mushuk va sichqon", "O'z uyingni egalla"
Ilm-fan va tabiat markazi	Tabiat, atrof olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari: "Bu nima", "Narsalarni taqqoslang", "Yilning to'rt fasli", "Juft rasmlar"

Doskaga Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish aks ettirilgan sxema-jadval berilgan. Sxema-jadvalni tahlil qilib chiqamiz.

### **Uyga vazifa.**

Tadqiqotchi: Sizlar uyda qo'lingizdagи sxemaga qo'shimcha ravishda Didaktik o'yinlar vositasida ivojlantiruvchi muhitni tashkil bo'yicha rivojlantiruvchi markazlarda qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan namunalar yozib kelasizlar.

### **Qaror №4**

**09.03.2021- yil.**

### **Qatnashdilar: mudira, uslubchi, 10 nafar tarbiyachi.**

**Mavzu:** Korea davlatida maktabgacha ta'lim sohasidagi innovatsiyalar.

**Maqsad:** Uslubchi,tarbiyachilarga Korea davlati maktabgacha ta'lim sohasidagi afzalliliklar haqida bilim berish.

Uslubchi,tarbiyachilarga uchun tarqatma materiallar:

- 1.Korea davlati maktabgacha ta'lim sohasiga oid slaydlar.
- 2.Savol-javob uchun savollar yozilgan kartochkalar.

1-qism.Korea davlati maktabgacha ta’lim sohasidagi afzalliklar bilan tanishtirish.

2-qism.Korea davlati maktabgacha ta’lim sohasidagi afzalliklar bilan tanishgandan so’ng qaysi usullarini O’zbekiston sharoitida qo’llash mumkinligi bo'yicha mustaqil ishslash.

### Savol va javoblar.

Rivojlantiruvchi ta’lim -bu murakkab jarayondir, u tarbiyachilardan fidoiylikni va o’z kasbiga bo’lgan muhabbatni talab etadi.Biz Bolaga Rivojlantiruvch ta’lim mazmunini quyidagicha belgiladik.

Rivojlantiruvchi ta’lim – o‘quvchi yoki talabaning ta’lim vositasida bir sifat bosqichidan ilkinchisiga o‘tishini ta’minlovchi jarayon; har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoni.

Muhit- hayot, faoliyat kechiradigan tabiiy ijtimoiy sharoitlar majmui.

Muhitga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar – ta’lim muhitini o‘zgartirishga yo‘naltirilib, o‘quvchining ijobiy shart–sharoitlar vositasida atrof – borliq orqali bolaning rivojlanishiga ko‘maklashadigan texnologiya.

Savollar:

1. Faoliyatningiz jarayonida qanday didaktik o‘yinlardan foydalanasiz?
2. Didaktik o‘yinlarning turlarini bilasizmi?
- 3.O‘yin kompetensiyalari deganda nimani tushunasiz?
4. Korea davlati maktabgacha ta’lim sohasidagi qaysi usullarni siz qo’llaydigan ussullarga o’xshashligi bor?
- 5.Rivojlantiruvchi ta’lim deganda nimani tushunasiz?
- 6.Muhitga yo‘naltirilgan pedagogic texnologiyalarni qanday izohlaysiz?
- 7.Xorijiy davlatlar maktabgacha ta’lim sohasi bo'yicha qanday ma'lumotga egasiz?

Savol-javobda hamma tarbiyachilar faol ishtirok etdilar, ular savollarga aniq va tushunarli javob berdilar. Bundan ko‘rinib turibdiki ,didaktik o‘yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqidagi bilimlar mustahkamlangan va chuqurlashgan.

### Tekshiruvchi va umumlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari.

Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o‘tkazib bo‘lgandan so’ng tajriba va nazorat guruhi tarbiyachilar bilan so‘rovnama o‘tkazildi. So‘rovnama o‘tkazishda quyidagi savollardan foydalanildi.

### Test

#### 1.” Kompetensiya” so‘zining ma’nosи nima?

- a) bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmui.
- b) bu –yangilik
- v) bu-faoliyat

## **2. Didaktik o’yinlar qanday turlarga bo’linadi?**

- a) Narsa o’yinchoqlar bilan o’ynaladigan o’inlar.
- b) Og’zaki didaktik o’yinlar,stol ustiga qo’yib o’ynaladigan o’yinlar
- v) barcha javoblar to‘g‘ri

## **3.Rivojlantiruvchi ta’limga ta’rif bering?**

- a) har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoni.
- b) o‘yin faoliyatida o‘qitish jarayoni
- v) o‘quv faoliyatida o‘qitish jarayoni

## **4.Muhitga yo’naltirilgan pedagogic texnologiyalar deganda nimalarni tushunasiz?**

- a) atrof – borliq orqali bolaning rivojlanishiga ko‘maklashadigan texnologiya.
- b) kreativ texnologiya.
- v) akmeologik,kreativ,refleksiya texnologiya.

## **5.O’yin kompetensiyasiga ta’rif bering?**

- a) bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi qiziquvchanlik ,yangiliklarga intilishi,Yangi g‘oyalarni ilgari surishi.
- b) xushmuomilalik, sabrlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik
- v) o‘z ishini bilish, ma’suliyatlilik

## **6.Bolalarni rivojlantirish sohalari deganda nimalarni tushunasiz?**

- a) Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish
- b). Ijtimoiy-hissiy rivojlanish, Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, Bilim olish ,Ijodiy rivojlanish
- v) hamma javoblar to‘g‘ri

Test kaliti: **1-a, 2-v, 3-a, 4-a, 5-a,6-v**

**III.2. Tajriba-sinov ishlarining tahlili**

Tajriba guruh talabalarini testga bergen javoblarini natijalari.  
(testlar 53-betda ilova qilingan)

Savollar	tarbiyach i	Javob variantlari									
		A		B		V		G		D	
		+	-					-	-	+	-
1.	1	7	7								
		4	5								
2.	1										
3.	1										
4.	1							5	9		
								6			
5.	1									9	5
										6	3
										2	8
										0	0
6.	1										

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Eslatma «+» to‘g‘ri javobni, «--» noto‘g‘ri javobni, yuqorida tarbiyachilar soni, pastda – protsent % hisobi.

Tarbiyachilar(uslubchi ) bilan o‘tkazilgan test natijalarini tahlil (2.1.1 jadval) shuni ko‘rsatadi, 1-savolga 6 (4 6,2%) to‘gri 7 (53,8%) noto‘g‘ri javob berdi2-savolga 9 (61,5%) to‘g‘ri 5 (38,5%) noto‘g‘ri deb belgilaganlar.3-savolga8 (57, %) to‘g‘ri, 6 (42,25%) noto‘g‘ri javob belgilagan. 4-savolga 5 (34,65%) to‘g‘ri, 9 (65,35%) noto‘gri belgilangan. 5-savolga 9 (62%)to‘g‘ri 5 (38%) noto‘g‘ri javob bergenlar. \_6-savolga 6(47%) to‘g‘ri,7(53%)noto‘g‘rijavob bergenlar.

Tarbiyachilar (uslubchi ) bilan o‘tkazilgan test natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik o‘yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqida aniq bilimga ega emaslar.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida didaktik o‘yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqidagi bilimlarini ko‘rsatkichlari (% hisobida)

	Savollar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		+	-	+	-
1.	Didaktik o‘yinlar haqida nimalarni bilasiz ?	42,2%	53,8%	44,8%	55.2%
2.	Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?	61,5%	38,5%	55,5%	44,5%
3.	Qaysi faoliyat markazlarida ivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mumkin?	58%	42%	47%	53%
4.	Bolaga yo’naltirilgan ta’lim deganda nimani tushunasiz?	34,65%	65,35%	55,3%	44,3%
5	O‘yin kompetensiyalari deganda nimani tushunasiz,Ulardan qachon foydalanasiz?	62%	38%	48%	52%

6.	Muhitga yo'naltirilgan pedagogic texnologiyalar haqida ma'lumot bering?	47%	53%	52%	48%
----	---	-----	-----	-----	-----

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatdiki (uslubchi ) tarbiyachilar didaktik o'yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqida bilimga egadirlar.

Qayd etuvchi tajriba-sinov asosida olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Didaktik o'yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish muammolari psixolog, pedagoglar tomonidan o'r ganilgan, ularda asosan faoliyat markazlarida "Ill qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish muammolari tadqiq etilgan.

Lekin hozirgi vaqtida (uslubchi ) tarbiyachilarini rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqidagi muammosi etarli darajada tadqiq etilmagan;

O'r ganilayotgan masalani amaliyotdagи holatini o'r ganish shuni ko'rsatadiki ,tarbiyachilar rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish haqida umumiy bilimga egadirlar, lekin bu bilimlarni faoliyat markazlarida amaliy jihatdan qo'llashga qiynaladilar;

Pedagog uslubchi )larni pedagogik faoliyatlarini kuzatish tahlil qilish shuni ko'rsatadiki tarbiyachilar mashg'ulotlarni dastur asosida tashkil etadilar ,mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'radilar. pedagogik texnologiyalardan foydalanadilar lekin mashg'ulotlarda bolalarni faollashtirish, usullaridan, ularni mustaqil faoliyatlarini tashkil etishga va boshqarishga qiynaladilar chunki ularni o'zları rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish mazmunini to'liq o'zlashtirmaganlar.

Shunday qilib, adabiyotlar va ilmiy manbalarni o'r ganish va tahlil qilish, shuningdek amaliyotni o'r ganish tarbiyachilarini didaktik o'yinlar vositasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish jarayonini samradorligini oshirish zaruriyati bilan va uni amalaga oshirishning ilmiy-nazariy tizimi va metodik tavsiyalarni ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilikni tasdiqladi.

## **UMUMIY XULOSA.**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali kechishi davlatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyati integratsiyalashuvida yosh avlodning ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat ravnaq topgani sari, bola mustakil jarayonini tashkil etish ularning bilim sa’viyalari, ish unumdorligini o’stiradi. Bunda rivojlantiruvchi o‘yinlar asosiy omil hisoblanadi. Chunki, bola yoshlar shu jumladan individual xususiyatlariga ko‘ra turlicha fikrlashga moyil bo‘ladi, ana shu sifatlarni didaktik o‘yinlar orqali amalda ro‘yobga chiqarish, oz fursatda bilimli, iqtidorli va kasb mahoratin to‘la egallagan yoshlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish dolzarb pedagogik muammodir. Bunday muhim vazifalarni bajarish oila va umumiyl o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari zimmasiga yuklatilgan, shu jihatdan ularni ilmiy jihatdan asoslangan, tajribada sinovdan o‘tkazilgan ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish yuzasidan ta’minalash esa maxsus pedagogik-pisixologik tadqiqotlarni amalga oshirishni takazo etadi

O‘yin faoliyati predmetlarning asosiy belgilarini ajrata olish va taqqoslash malakasini shakllantiruvchi mashqlar, predmetlarning muayyan belgilarini umumlashtiruvchi o‘yinlar guruhi; mакtabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish, so‘zlarga tez javob berish, fonematik jihatdan eshita olish tezligini rivojlantiradigan o‘yinlar guruhi. Bunda o‘yin syujeti o‘qitishning asosiy mazmuniga parallel ravishda rivojlanadi, o‘quv jarayonini faollashtirishga yordam beradi.

Bugungi bolalar qaerda yashashidan qat’iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o‘zgarishlar bilan to‘qnash kelishlariga to‘g‘ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma’no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o‘rganish muhimdir. Rossiya va Koreya Respublikasining tajribasi ham albatta e’tiborga molik va ishonamizki, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Rossiya va Koreya modeli elementlari albatta o‘z aksini topadi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelishimizga asos bo‘ldi:  
Oliy o‘quv yurtlarining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda,  
avvalambor, uning kasbiy tayyorgarligini hisobga olish va o‘quvchilarni pedagoglik kasbiga  
tayyorlash sohasiga innovatsion texnologiyalarini joriy etish.

Bo‘lg‘usi tarbiyachilarni ta’lim jarayonini amalga oshirishda “Ilk qadam” davlat o‘quv  
dasturi asosida tashkil etilishiga e’tibor qaratish zarur.

### **Metodik tavsiyalar.**

Tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni bayon qilamiz:

1. Didaktik o‘yinlar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratishda :guruh pedagogic,estetik va  
gigenik talablarga javob berishi kerak.

2.Guruhda jihozlar va o‘yinchoqlarni joylashuviga etibor qaratish:

Bola shaxsini faol harakati uchun 50%,

Tinch harakati uchun 20%,

Jismoniy,ishchan harakatlar uchun 30%

- 3.Didaktik o‘yinlarga maxsus o‘rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma’lum joy olishi kerak. Didaktik o‘yinlarni mashg’ulot bilan bog’lab olib borishni yaxshilab o‘ylab amalga oshirish lozim.
3. Didaktik o‘yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o‘yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish lozim
4. Didaktik o‘yinlar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratish bolani tarbiyalovchi,ularga motivatsiya –stimul beruvchi,kommunikativ qobiliyatlarni tarbiyalashi lozim.
5. Didaktik o‘yinlar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratishda bolalarda o’z kuchiga ishonish ,ijodkorlikni tarbiyalanishi kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
- 2.Mirziyoyev.Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
- 3.Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni
5. Mirziyoyev Sh. M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016.y. 29-dekabr

6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. , - T.: 2020 y
7. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.-T.:2019 y
8. Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 y
- 9.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2018y
- 10.Umumiy tipdagi davlat va nodavlat MTT to‘g‘risidagi Nizom.2019 y
- 11.Lixachev B.T. Pedagogika / Ucheb.posob. 4-izd. – M.: Arayt, 2003.y.
12. Pedagogika / V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mišenko, Ye.M.Shiyanov. – M.: Vlados, 1997.y.
13. Pedagogika / Nopedagogik oliv ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.y.
- 14.Slastenin V.A. Obiçaya pedagogika. – M.: Pedagogika, 2003.y.
15. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. – T.: “O‘qituvchi”, 1997.y.
16. Xarlamov I.F. Pedagogika / 7-izd. – Minsk: Universitet, 2002.y.
17. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.y.
18. Podlasiy I.P. Pedagogika / Kniga 1. – M.: Vlados, 2003.y.
19. Yusupova.P. .“Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” .T:-1997.y.
20. Shodlonova.Sh.S.“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” o‘quv qo‘llanma. T:, 2008 y.
- 21.Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika.o‘quv qo‘llanma - T: TDPU, 2013y
- 22.Qodirova.F.R. Toshpo‘latova Sh.Q.Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika darslik - T:”Tafakkur”, 2019 y
- 23.Ne’matov.Sh.E.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashqlar to’plami. T 2020. y.

#### **Internet saytlari:**

24. www. tdpu. uz
- 25.www. pedagog.uz
- 26.www. ziyonet.uz
- 27.www. edu.uz

## Ilova 1

### “Bu kimning uychasi?” o‘yini

Metodika diqqat, idrok va xotiraning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, 4-6 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan.

Bolalarga 10 soniya vaqt davomida avval 1-rasm ko‘rsatiladi. Unda hayvonchalar o‘zlarining uychalarida joylashtirilgani ko‘rsatilgan. So‘ng rasmni olib qo‘yib, hayvonchalar uychalaridan tashqarida tasvirlangan

2-rasm ko‘rsatiladi. Bola hayvonchalarni qaysi uyda yashashini topib, uycha bilan hayvonchani qalam bilan birlashtirib qo‘yishi lozim. Buning uchun bolaga 40 soniya vaqt beriladi.

Metodika materiali: Hayvonchalar va ularning uychasi chizilgan rasm.

Ko‘rsatma: Hozir sizga 1-rasm ko‘rsatiladi, siz qaysi hayvoncha qaysi uychada joylashganligini yaxshilab ko‘rib olishingiz lozim. So‘ng rasm olib qo‘yiladi va 2-rasm ko‘rsatiladi. 2-rasmda hayvonchalar uychalaridan tashqarida tasvirlangan. Siz har bir hayvonchaga uychasini topib bering va qalam bilan birlashtiring





### “Qarama-qarshi juftliklarni birlashtir” o‘yini

Metodika diqqat, idrok, mayda qo‘l motorikasi, fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Metodikani bajarish davomida bolaga qarama-qarshi juftliklarni topish va ularni qalam bilan birlashtirish vazifasi taklif etiladi.

Metodika 4-6 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan.

Metodika materiali: qarama-qarshi juftliklar berilgan rasm.

Ko‘rsatma: Quyidagi rasmda berilgan qarama-qarshi juftliklarni topib birlashtiring.



### «Shakllarni birlashtir» o‘yini

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarning sezgi, idrok, va tafakkur, jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va tahlil qilish.

Metodika johozi: bolaga oldindan tayyorlab qo‘yilgan turli predmetlar va shakllar chizilgan jadval beriladi.

Metodikani o‘tkazish tartibi: Bu metodika 5-6 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib individual, yoki 5-6 ta bola bilan olib borilishi mumkin.

Ko‘rsatma: Bolaga namunada berilgan beshta shaklga mos keluvchi shakllarni pastdagagi jadval ichidan topish va qalam bilan birlashtirish vazifasi topshiriladi. Topshiriqni bajarish uchun 30-50 daqiqa vaqt beriladi.



### “Juftini top” o‘yini

Maqsad: maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqat, sezgi, idroki va tafakkur jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va tahlil qilish.

Metodika jahozi: Turli shakllar va predmetlar chizilgan jadval.

Metodikani o‘tkazish tartibi: Bu metodika 5-6 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, individual yoki kichik guruhlarda olib borish mumkin.

Ko‘rsatma: Bolaga turli shakllar va predmetlar chizilgan jadval beriladi. Namunada berilgan predmet va shakllar juftini toping. Topshiriqni bajarishga 40-50 soniya vaqt ajratiladi.



